

YANGI O‘ZBEKISTONDA TALABA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Bakiyeva Muhabbatxon Kamaliddinovna

“University of economics and pedagogy” NOTM

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, gender tenglik, davlat ravnaqida ayollarning tutgan o‘rni, talaba xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishi yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy faollik, davlat ravnaqida ayollarning o‘rni, gender tenglik, talaba xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash.

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ- ДЕВУШЕК В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Бакиева Мухаббатхан Камалиддиновна

“University of economics and pedagogy” НВУЗ

Заведующий отделом дошкольного и начального образования

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, направленные на повышение социальной активности женщин в нашей стране, обеспечение гендерного равенства, роль женщин в развитии государства, а также всестороннюю поддержку и развитие студенток.

Ключевые слова: социальная активность, роль женщин в развитии государства, гендерное равенство, поддержка студенток.

INCREASING SOCIAL ACTIVITY OF FEMALE STUDENTS IN THE NEW UZBEKISTAN

Bakieva Mukhabbatkhan Kamaliddinovna

dotsent of “University of economics and pedagogy” non-governmental

higher education institution,

Head of the Department of Preschool and Primary Education

Abstract: This article discusses the reforms in our country aimed at increasing the social activity of women, promoting gender equality, highlighting the role of women in national development, and supporting the comprehensive development of female students.

Keywords: social activity, women's role in national development, gender equality, support for female students.

“Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sogʻlom va barkamol inson boʻlib, hayotda munosib oʻrin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”

(Sh.M.Mirziyoyev.)

Kirish. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining muhim yoʻnalishlaridan biri ijtimoiy adolatni taʼminlash va barcha fuqarolar, xususan, xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning taʼlim, fan va jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirish borasida tub oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarga nisbatan davlat siyosati sifatida gender tenglikni taʼminlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi – bu oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan ayol talabalarning taʼlim, fan, madaniyat, sport va jamiyatning boshqa sohalarida faol ishtirok etish jarayoni boʻlib, ularning oʻz huquqlari, burchlari va ijtimoiy masʼuliyatini anglagan holda, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy hissa qoʻshishga intilishini ifodalaydi. Ushbu tushuncha xotin-qizlarning shaxsiy va kasbiy maqsadlariga erishishda tashabbuskorlik koʻrsatishi, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishi hamda ijtimoiy hayotda masʼuliyatli ishtirokini taʼminlash kabi jihatlarni oʻz ichiga oladi. Mazkur faollik ayol talabalar salohiyatini roʻyobga chiqarish, ularning ijtimoiy oʻrnini anglash jarayonini

kuchaytirish hamda jamiyatning gender tengligini ta'minlash borasidagi harakatlariga asos bo'ladi.

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi islohotlar, davlat dasturlari va jamiyatdagi ijtimoiy fikr o'zgarishlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan loyihalar, xotin-qizlarning kasbiy rivojlanishiga ko'mak beruvchi tashabbuslar va ularning natijadorligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu mavzu nafaqat xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlash, balki davlatning umumiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishdagi ahamiyati bilan ham dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi va rivojiga bog'liqdir. Shu jihatdan oilada farzandlarning ilk tarbiyachisi, murabbiysi sifatida ayollarning intellektual salohiyatli, ilimli va keng dunyoqarashli bo'lishi jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Buyuk donishmandlar "Ayol go'zal, oqila bo'lishi muhim, lekin bilimli bo'lishi shart" deb ta'kidlaganlari ham bejizga emas [6]. Taniqli davlat arbobi Indira Gandining mashxur jumlası bor: **"Bitta qiz bolani o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz"** [9]. Bu fikr zahirida hayotiy haqiqat borligini, albatta, hammamiz yaxshi bilamiz. Taraqqiyot yo'lining asosi ma'rifatda ekan, ayolning ma'rifatli bo'lishi jamiyatning baxti va saodatiga xizmat qiladi.

Talaba qizlarning tarbiyasi va ijtimoiy faolligini oshirish masalasi bo'yicha turli ilmiy manbalar va tadqiqotlar qatorida xalqaro va milliy tajribalar chuqur o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar talaba qizlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashda zarur bo'lgan prinsiplar, metodlar va strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'ladi. Quyidagi sohalarda olib borilgan tadqiqotlar bu masalaning kengroq tahlilini taqdim etadi:

1. Milliy qadriyatlar va tarbiya: O'zbekiston ta'lim tizimida milliy qadriyatlarning o'rni katta bo'lib, u yoshlarning ruhiyatiga, dunyoqarashiga va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy siyosatida bu masala alohida ta'kidlangan. Bunday yondashuvning muhimligini Z.M. Boburiy, S.A. Nosirov, va

N.S. Hayitov kabi tadqiqotchilarning asarlari yana bir bor isbotlaydi. Ular milliy qadriyatlarni talaba qizlar ongiga singdirishda ularning tarbiyasidagi rolini chuqur tahlil qilishadi.[12]

2. Gender tengligi va ta'lim: Gender tengligini ta'minlash masalasi jahon miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lib, ayollarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotdagi o'rni o'rganilmoqda. BMT va YuNESKO tomonidan olib borilgan tadqiqotlar gender tengligi ta'limda, ayniqsa yuqori ta'limda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Ushbu mavzuda N.J. Qobulova va T.A. Rajabovanning ilmiy ishlari O'zbekistondagi gender tengligini rivojlantirish masalalariga oid yangi yondashuvlarni taqdim etadi

3. Innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion metodlar qo'llanilishi talaba qizlarning shaxsiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish talaba qizlarning ta'lim jarayoniga yanada samarali jalb qilinishini ta'minlaydi. K.A. Kamolov va F.R. Ismoilovlarning ilmiy ishlari ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish va interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil etadi.

4. Milliy va xalqaro ta'lim tizimining o'zaro ta'siri: Xalqaro ta'lim almashinuvlari va hamkorlikning talaba qizlar uchun foydalari ko'plab tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilgan. Xalqaro akademik almashinuvlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy g'oyalar va bilimlarni o'rganishga yordam beradi. J. Smith va M. Taylorning asarlari xalqaro ta'lim tizimi va akademik almashinuvlar yoshlarning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida chuqur tahlil o'tkazgan.

Ushbu adabiyotlar talaba qizlarning tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga oid mavzularni chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Milliy va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish orqali ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishga erishish mumkin. Shu asosda, talaba qizlar o'zlarini jamiyatda faol fuqarolar sifatida

namoyon qilib, yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotiga hissa qo'shishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning har sohada ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo'lgan e'tibor yuksaldi. O'zbek ayollarining madaniy va ma'naviy, huquqiy-axloqiy, intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy faolligini oshirish mustaqillik tamoyilining asosiy vazifasiga aylandi. So'ngi yillarda ayollar jamiyatning eng e'zozga sazovor, hurmat-izzat, g'amxo'rlik va e'tiborga loyiq ijtimoiy toifasiga aylanmoqda. Zero, qizlarning ilmli bo'lishini rag'batlantirish uzoqni ko'zlab bosilgan muhim qadamdir. Bugungi talaba qiz ertangi kunda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi bilan birga, ilmli, intellektual salohiyatli, keng dunyoqarashga ega farzandni tarbiyalaydigan ona ham bo'ladi. Ma'rifatli ayol o'z sohasida ham, oilada ham kelajakka daxldor to'g'ri qaror qabul qilinishiga munosib hissa qo'shadi [7].

Talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi sifatli ta'lim olish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Ta'lim jarayoni orqali ular nafaqat kasbiy ko'nikmalar va maxsus bilimlarni egallaydi, balki keng qamrovli dunyoqarashni shakllantiradi va ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim jarayoni talabalarni zamonaviy fan va texnologiya sohasidagi innovatsiyalar bilan tanishtiradi va bu esa ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Ta'lim davomida talaba xotin-qizlar o'zlariga xos qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi. Bu jarayon ularda adolat, mas'uliyat, hurmat, halollik kabi ijtimoiy ahamiyatga ega sifatlarni rivojlantiradi, bu esa talaba xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda munosib o'rin egallashlariga xizmat qiladi [9]. Zero, Abu Mansur Moturudiy ta'kidlaganidek, "Har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini o'zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta'minlovchi kuch – har bir hayotiy vaziyatda oqilona me'yor, murosaga asoslangan muvozanatni ta'minlay bilish tamoyillariga rioya qila olishdan iborat"[4]. Zero, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va tarbiyasining muhim

yoʻnalishi-gʻoyaviy tarbiyadir. Ijtimoiy ongning shakllari boʻlgan fan, din, falsafa, sanʼat, badiiy adabiyot, axloq va huquq gʻoyaviy tarbiyaning manbalari va asosi hisoblanadi. Ular orqali gʻoyaviy tarbiyani maqsadli olib borish jarayonining amalga oshishi reallikka aylanadi. Shuningdek, olib borilayotgan taʼlim va tarbiya jarayonlari talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini dunyoviy, ilmiy bilimlar bilan boyitishga yoʻnaltirilgach, bu ularning faol hayotiy mavqega ega boʻlishlariga koʻmaklashadi. Shu maʼnoda, gʻoyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiyaning poydevori deyishga asos bor.

Talaba qizlarimiz oʻqish davomida turli jamoat tashkilotlarida ishtirok etish orqali rahbarlik va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega boʻladilar. Bu ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga va boshqalar bilan samarali ishlashga oʻrgatadi.

Shuningdek, ijtimoiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu qobiliyatlar talabalarni turli masalalarga keng va tanqidiy nazar bilan qarashga, innovatsion yechimlar topishga undaydi.

Talabalarning ijtimoiy rivojlanishi ularning kelajakdagi kasbiy hayotiga tayyorgarlik koʻrish bilan ham bogʻliqdir. Amaliyot va stajirovka oʻtash, kasbiy mahoratini oshirish va oʻz kasbiga tegishli bilimlarni chuqur oʻrganish talabaning jamiyatdagi roli va kasbiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, talaba xotin-qizlarning sifatli taʼlim orqali intellektual rivojlanishi va ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni qoʻllab-quvvatlash jamiyatning kelajagi, barqaror rivojlanish va ayollar oʻrnini yanada mustahkamlash yoʻlida asosiy vazifadir.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotida ayollar, xususan, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” qaror qabul qilindi [2]. Mazkur qaror asosida xotin-qizlarning taʼlim olish huquqlarini

qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan 14 banddan iborat kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi PQ-4749-son qarori va 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni asosida 2020/2021-o'quv yilidan boshlab Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tavsiyanomasiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlari ajratildi. Shu bilan birga, ehtiyojmand oilalardan chiqqan qizlar uchun ajratiladigan davlat grantlari soni ikki barobarga oshirilib, jami ikki mingta o'ringa yetkazildi [3].

Xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish va ularning malakasini muntazam oshirib borish maqsadida, Prezidentning "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-87-son, 07.03.2022 y.) e'lon qilindi. Ushbu farmon asosida 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab yuridik shaxslar uchun oxirgi olti oyda uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga har oy minimal iste'mol xarajatlari miqdorida byudjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi belgilandi [1].

Farmonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha quyidagi chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan:

- Oliy ta'lim muassasalari, texnikumlar va kollejlarda ta'lim olayotgan xotin-qizlar uchun kontrakt to'lovlarini qoplash maqsadida 7 yil muddatga foizsiz kredit ajratish uchun byudjetdan har yili 1,8 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi;
- Davlat oliy ta'lim muassasalarida magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari davlat tomonidan qoplanadi va bu maqsadda har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi;
- Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun bakalavriat bosqichida 50 nafar, magistraturada esa 10 nafar xotin-qizlarga "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar taqdim etiladi;

- Har yili 2 100 nafar ehtiyojmand oilalarning farzandlari, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan qoplanadi;

- Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qiz davlat oliy ta'lim muassasalariga alohida kvota asosida qabul qilinadi;

- Davlat ilmiy tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalarining doktorantura dasturlarida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 ta maxsus kvota ajratiladi.

Mazkur chora-tadbirlar ayollarning ilmiy va ijtimoiy faolligini oshirishga, ularni ta'lim, ilm-fan va kasbiy faoliyatda yanada qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu tashabbuslar ayollarning intellektual salohiyatini rivojlantirib, ularni jamiyatning har tomonlama taraqqiy topishida faol ishtirok etishga undaydi va yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotida muhim omil sifatida qaraladi [10].

Shuningdek, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy rivojlanishi oila va uning a'zolarining qo'llab-quvvatlashi orqali shakllanadi. Oila, birinchidan, farzandlar uchun eng asosiy ta'lim va tarbiya muassasasi bo'lib, ijtimoiy hayotga kirishish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Oila a'zolarining, ayniqsa, ota-onaning, o'z farzandlarining ta'lim olishi va rivojlanishiga bo'lgan e'tibori ularning o'zligini topishlariga, ijtimoiy faolligini oshirishlariga yordam beradi.

Oiladagi doimiy qo'llab-quvvatlash va muloqot orqali talabalar o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashlari, ijtimoiy loyihalarda qatnashishga, yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga tayyor bo'lishadi. Oila a'zolarining birgalikdagi sa'y-harakatlari, yosh ayollarni kelajakda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tenglik siyosati ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda xotin-qizlarning o'rni va ularning ta'lim sohasida erishayotgan yutuqlari zamonaviy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-sonli farmoni bu jarayonda muhim qadamlar qatoriga kiradi [8]. Ushbu farmon doirasida ayollar uchun imtiyozli grantlar,

ta'limda moliyaviy yordam va yangi ish o'rinlari yaratish kabi amaliy chora-tadbirlar belgilangan. Farmonning amaliy ijrosi orqali ayol talabalarning jamiyatdagi mavqei mustahkamlanib, ularning faoliyat ko'lamini kengaytmoqda.

Gender tenglik xotin-qizlarga erkaklar bilan teng ravishda ta'lim olish, rivojlanish va kasbiy malakani oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu jarayon talaba xotin-qizlarning intellektual salohiyatini oshirib, ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. O'zbekistonda bu yo'nalishda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida talaba xotin-qizlar nafaqat o'z bilim darajasini oshirmoqda, balki ijtimoiy muammolarga faol yondashib, jamiyat hayotida yanada faol qatnashmoqda.

Gender tenglik orqali xotin-qizlar jamiyatdagi muhim jarayonlarga, jumladan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga teng huquqlar asosida jalb qilinmoqda. Bu esa ayollarni ijtimoiy faollikka, o'z huquqlarini himoya qilishga va jamiyat rivoji uchun o'z xissasini qo'shishga imkon yaratmoqda [11].

Taklif. Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy muhitning sog'lom bo'lishi davlat miqyosidagi buyuk va ezgu maqsaddir. Qizlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari birgalikda ish olib borishi lozim deb hisoblaymiz. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar talab etiladi:

- ✓ asrlar davomida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlar hamda an'analarni talaba qizlar ongiga singdirish;
- ✓ bugungi urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar va marosimlarni saqlab qolish;
- ✓ qizlarimizni vatanga muhabbat, milliy g'urur va milliy iftixor ruhida tarbiyalash;
- ✓ ularni ijtimoiy foydali mehnatga va sport bilan muntazam shug'ullanishga o'rgatish;
- ✓ talaba xotin-qizlarga g'amxo'rlik ko'rsatish va zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- ✓ davra suhbatlari tashkil etish;
- ✓ olimlar, shoirlar, qahramonlar va iqtidorli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish.

Shuningdek, yoshlar tafakkurini rivojlantirishda o'qituvchilarning roli juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Talaba qizlarni tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish.

Ta'lim va tarbiya jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanib, talaba qizlarning shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirish zarur. Ularni muammolarni yechish, ijodiy fikrlash va liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradigan maxsus dasturlarga jalb qilish lozim.

2. Milliy qadriyatlarni integratsiya qilish.

Ta'lim jarayonlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga e'tibor qaratib, talaba qizlarda o'z madaniy merosiga sodiqlik va keng dunyoqarashni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

3. Gender tengligini ta'minlash dasturlari.

Gender tenglikni yanada mustahkamlash uchun oliy ta'lim muassasalarida maxsus o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish, shuningdek, ayollar huquqlarini targ'ib etuvchi loyihalarni amalga oshirishni davom ettirish lozim.

4. Oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash.

Talaba qizlarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda oila muhim rol o'ynaydi. Shu sababli oila a'zolarining ma'rifatli bo'lishini rag'batlantiruvchi dasturlarni yo'lga qo'yish va ota-onalarni farzandlarning ta'lim-tarbiyasi borasida qo'llab-quvvatlash zarur.

5. Tadqiqot va ilmiy faoliyatni rivojlantirish.

Talaba qizlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish uchun qo'shimcha grantlar va stipendiyalar joriy etish, shuningdek, ularning ilmiy loyihalarda ishtirokini rag'batlantirish muhimdir.

6. Jamoaviy faoliyatni kuchaytirish.

Talabalarni turli jamoat tashkilotlari va tadbirlarga faol jalb qilish orqali ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish lozim.

7. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Xotin-qizlar ta'limi bo'yicha xalqaro dasturlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va talaba qizlarni xalqaro akademik almashinuv dasturlariga jalb etish zarur.

Ushbu takliflar talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilib, ularning jamiyat rivojiga qo'shadigan hissasini oshiradi. Shu orqali yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti va insoniy qadriyatlar asosida rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratish mumkin.

Natija. Yuqorida bayon etilgan taklif va chora-tadbirlar talaba qizlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ularning ma'naviy kamoloti va intellektual salohiyatini oshirish orqali jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etuvchi, yetuk va barkamol avlodni shakllantirish mumkin. Milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi talaba qizlarda o'z madaniy merosiga hurmat va dunyoqarash kengligini shakllantirib, ularni yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy kuchlaridan biriga aylantiradi.

Bundan tashqari, gender tengligini ta'minlash, innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda oila va jamiyatning birgalikdagi qo'llab-quvvatlashi natijasida qizlarning ijtimoiy faolligi, ilmiy izlanishlarga qiziqishi va liderlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Ushbu choralar kelajakda barqaror rivojlanish, tinchlik va farovonlikka asoslangan jamiyatni barpo etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa nafaqat bugungi kun uchun, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam poydevor yaratishga imkon beradi.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida jamiyatimizda ayollarga, xususan, talaba xotin-qizlarga bo'lgan e'tiborning tubdan o'zgarganligi ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida talaba xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar eshiklari ochilgan bo'lib, ular o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur sharoitlarga ega.

Ayollarni e'zozlash an'analari mustahkamlangan bunday jamiyatda, shubhasiz, kelajakda ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shuvchi, teran fikrlash qobiliyatiga ega, dunyo miqyosida yuksak e'tirofga sazovor avlod shakllanadi. Bu esa jamiyatning barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.03.2021 yildagi PQ-5020-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – Xalq so'zi, 2016-yil 8-dekabr.
4. Toxirjon Shirinboy o'g'li Rashidov. Abu Mansur Al-Moturidiy hayoti va ijodi. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454
5. Bazarova D. "O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davr talabi". –Toshkent: TDYUU, 2019.
6. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.
7. Ahmadjonova D. "Mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar"-Toshkent, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
9. Abdullayeva, S. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'limning o'rni. O'zbekiston fan va ta'lim, 2022.
10. Karimova M. Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2023

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari. Gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlar faolligini oshirish masalasi. Xalq so’zi gazetasi. 2021-yil. 7-dekabr.

12. Boburiy, Z.M., Nosirov, S.A. “Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi”. – Tashkent: Ilm-Ziyo, 2018.